

Linguistic-Cultural Approach To The Analysis Of The Functionality Of Ideonyms

Zumradkhon Jonbutayeva,
Teacher of the Department of Philology,
Turan International University

Abstract

This article analyzes the functionality of ideonyms through a linguocultural approach. Naming units such as biblionyms, artionyms, chrononyms, theonyms, and mythonyms are examined as linguocultural elements reflecting the cultural, historical, and social consciousness of a people. The study highlights the nominative, identification, cultural-symbolic, and communicative functions of ideonyms, emphasizing their role in conveying cultural concepts through language.

Keywords: Ideonyms, linguocultural approach, language and culture, functionality, identification, cultural code, nomination, national spirituality, historical memory, linguistics.

Annotatsiya

Ushbu maqolada ideonimlarning lingvomadaniy yondashuv asosida funksionalligi tahlil qilinadi. Biblionim, artionim, xrononim, teonim, mifonim kabi nomlash birliklari xalqning madaniy, tarixiy va ijtimoiy ongini ifodalovchi lingvokulturologik vositalar sifatida qaratiladi. Lingvokulturologiya doirasida ideonimlarning nominativ, identifikatsion, madaniy-ramziy va kommunikativ funksiyalari yoritiladi hamda ularning til orqali madaniyatni aks ettirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ideonimlar, lingvomadaniy yondashuv, til va madaniyat, funksionallik, identifikatsiya, madaniy kod, nominatsiya, xalq ma'naviyati, tarixiy xotira, tilshunoslik.

Ideonimlar – biblionim (badiiy, ilmiy, ommabop asarlar nomlari), artionim (san'atning barcha turlaridagi nomlar), xrononim (tarixiy voqealar, tarixiy davrlar nomlari), teonim (payg'ambarlar, avliyolar, farishtalar, masjid va ehromlar), mifonim (afsonalar, ertaklar, rivoyatlarning nomlari, xalq og'zaki ijodida uchraydigan nomlar), gyeortonimlar (bayramlar, tantana va festivallar nomlari) va boshqa nom turlari – tilning muhim qatlami biri bo'lib, ular nafaqat ob'ektlarni aniqlash vositasi, balki xalqning madaniy, tarixiy va ijtimoiy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklardir. Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi fan sifatida ideonimlarning funksionalligini tahlil qilishda muhim yondashuv hisoblanadi.

Lingvokulturologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesimidagi fan bo'lib, u xalq madaniyati paydo bo'lishining tilda ifodalanishi va mujassamlanishini tadqiq etadi. Bu ikki yo'nalish, ya'ni tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'zaro bog'lanishi oddiy bog'lanish emas, balki bu yangi ilmiy asoslangan yo'nalishning vujudga kelishidir. Shuning uchun bu hodisa tilshunoslik va madaniyatshunoslikning vaqtincha bog'lanishi bo'lmasdan, u fanning sistemalashgan tarmog'i bo'lib o'zining mustaqil maqsad, vazifa, metod va tadqiqot ob'ektiga ega bo'lgan fandır.[1] O'zbek tilidagi ideonimlar lingvomadaniy nuqtai nazardan xalqning ma'naviy merosi, milliy o'zligi va global ta'sirlar bilan uyg'unligini o'zida aks ettiradi.

Lingvokulturologiya til birliklarini madaniy kontekstda o'rganadi va ularning jamiyatlardagi ijtimoiy, ma'naviy va ramziy vazifalarini tahlil qiladi. Ideonimlarning funksionalligi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

Nominativ funksiya: ob'ektlarni (tarixiy, dinga oid asar, shaxs, samoviy joy, xalq og'zaki ijodidagi atoqli ot, asar nomlari va boshqalar) aniqlash va farqlash.

Identifikatsiya funksiyasi: milliy, diniy yoki ijtimoiy o'zlikni ifodalash.

Madaniy-ramziy funksiya: xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashini aks ettirish.

Kommunikativ funksiya: ijtimoiy aloqa vositasi sifatida xizmat qilish.[2]

Madaniy ma'no tashuvchisi sifatida ideonimlar muhim ahamiyatga ega. Ideonimlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va hayot tarzi haqida ma'lumot beradi. Masalan, o'zbek tilidagi "mehmonnavozlik" so'zi odam nafaqat mehmonni kutib oladi, balki o'zbek xalqining saxovatini va mehmondo'stligini aks ettiradi degan ma'noni ifodalaydi. Lingvokulturologiya til va madaniyat integratsiyasi orqali bu so'zlarning madaniy kontekstini tahlil qiladi. Demak, ideonimlar til orqali madaniy identifikatsiyani ta'minlaydi.

Shuningdek, Lingvokulturologiya ma'lum bir xalqning mentaliteti shakllanishi va avlodlardan avlodga saqlanib o'tishiga ta'sir etadigan omillarni o'rganadi. Lingvokulturologik yondashuvda ideonimlarning funktsionalligi doirasida til nafaqat moddiy kommunikativ vosita sifatida, balki madaniy va identifikatsiya tashuvchisi sifatida ham o'rganiladi. Ideonimlar til va madaniyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lib, xalqning dunyoqarashini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Lingvomadaniy yondashuv ideonimlarni nafaqat til birligi, balki madaniy kod sifatida ko'rib, ularning jamiyatdagi o'rnini chuqur tahlil qiladi. Taniqli lingvokulturolog V.Vorobyovning so'zlariga ko'ra: "Til madaniyatning oynasi bo'lib, undagi har bir birlik xalqning ma'naviy olamini ochib beradi" [3]

O'zbek tilidagi ideonimlar turkiy, arabiy, forsiy va boshqa madaniyatlarning ta'sirida shakllangan bo'lib, ularning funktsionalligi lingvomadaniy kontekstda xalqning o'tmishi va bugunini bog'laydi.

Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi" [4]

Matndagi fikr madaniyat fenomeniga e'tibor qaratishi uni ideonim nuqtai nazaridan insonning madaniy dunyoqarashini ifoda etuvchi til birliklari bilan bog'laydi. Ideonimlar til orqali madaniyatning muhim konseptlarini ochib beradi, lingvokulturologiya esa bu konseptlarning tilda qanday shakllanayotganini tahlil qiladi. Shu tariqa, til va madaniyat inson faoliyatining mahsuli sifatida o'zaro bog'lanadi, ya'ni ideonimlar til orqali inson madaniyatining chuqur ma'nolarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Shayxislamov N. Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari//Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 1 | 2021. – B.

Langacker Ronald W. 1994. Culture, cognition, and grammar. In: Martin Pütz (ed.) Language Contact and Language Conflict. 25–53. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins;

Palmer, Gary B. 1996. Toward a Theory of Cultural Linguistics. Austin, TX: University of Texas Press.

Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М.: Изд-во РУДН, 2008. – 340 с.

Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 46.